

Kirish imtihonlari (1-bosqich) natijalari e'lon qilindi!

Hurmatli abituriyentlar,

2022-2023 o'quv yili uchun

KIRISH IMTIHONLARIDAN MUVAFFAQIYATLI O'TGANINGIZ BILAN TABRIKLAYMIZ!

Ushbu rasmiy e'longa alohida e'tibor berishingizni so'raymiz!

2022-yil 13-mayda bo'lib o'tgan kirish imtihoni natijalariga ko'ra, abituriyentlar beshta toifaga bo'lingan:

BIRINCHI TOIFA:

80,00 va undan yuqori ball to'plaganlar nafaqat ikkinchi kurs (First Level)ga o'qishga kiradilar, balki GRANT ham olishadi. Agar ariza beruvchilar IELTS sertifikatiga ega bo'lmasa (kamida 5,5 ball), ular IELTS sertifikatini (kamida 5,5 ball) 2022-yil dekabr oyining oxiriga qadar topshirishlari kerak *. Ushbu toifada o'qish to'lovi mavjud emas.

IKKINCHI TOIFA:

70.00 va undan yuqori, ammo 80.00 dan past ball to'plaganlar, to'g'ridan-to'g'ri ikkinchi kurs (First Level)ga qabul qilinadi va kirish imtihonlarining iyul oyidagi ikkinchi bosqichi natijalariga ko'ra GRANT uchun ko'rib chiqiladi. Agar ariza beruvchilar IELTS sertifikatiga ega bo'lmasa (kamida 5,5 ball), ular IELTS sertifikatini (kamida 5,5 ball) 2022-yil dekabr oyining oxiriga qadar topshirishlari shart *. Bir o'quv yili uchun o'qish to'lovi 28 500 000 (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so'mni tashkil qiladi.

UCHINCHI TOIFA:

50.00 va undan yuqori, ammo 70.00 dan past ball to'plaganlar, to'g'ridan-to'g'ri ikkinchi kurs (First Level)ga qabul qilinadi. Agar ariza beruvchilar IELTS sertifikatiga ega bo'lmasa (kamida 5,5 ball), ular IELTS sertifikatini (kamida 5,5 ball) 2022-yil dekabr oyining oxiriga qadar topshirishlari shart *. Bir o'quv yili uchun o'qish to'lovi 28 500 000 (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so'mni tashkil qiladi.

** Agar abituriyent IELTS sertifikatini o'z vaqtida taqdim etmasa, u avtomatik ravishda birinchi kurs (Preparatory Year)ga o'tadi.*

TO'RTINCHI TOIFA:

10.00 va undan yuqori, ammo 50.00 dan past ball to'plaganlar, IELTS sertifikatining mavjudligidan yoki mavjud emasligidan qat'i nazar, birinchi kurs (Preparatory Year)ga qabul qilinadi. Bir o'quv yili uchun o'qish to'lovi 28 500 000 (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so'mni tashkil qiladi. Ushbu toifaga IELTS (kamida 5,5 ball) sertifikatini berish muddati – o'quv yili so'ngiga qadar.

BESHINCHI TOIFA:

10 balldan kam ball to'plaganlar belgilangan qabul chegarasidan o'ta olmaganlari sabab kutish ro'yxatida turibdilar va o'qishga qabul qilish to'g'risidagi qaror iyul oyida bo'lib o'tuvchi kirish imtihonining ikkinchi bosqichidan so'ng qabul qilinadi.

Abituriyentlar uchun ajoyib imkoniyat!

10-iyungacha TO'LOV UCHUN SHARTNOMANI TO'LIQ to'lagan abituriyentlar shartnoma summasidan **10% chegirmaga** ega bo'ladilar.

Shartnomalarni rasmiylashtirish Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti binosida **2022-yil 18-may soat 09:00 dan** boshlab amalga oshiriladi.

Iyul oyidagi kirish imtihonlari (2-bosqich) qoidalari tez orada e'lon qilinadi.

Qabul komissiyasining ishi uchun mas'ul shaxslar:

Rektor – Inoyatxodjayev Jamshid Shuxratullaevich

Dekan – Abdullayev Farhod Bahramovich

Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universiteti ma'muriyati ushbu ro'yxatdan tashqari shaxslarning faoliyati uchun javobgar emas.

Kerakli hujjatlar ro'yxati:

Ariza beruvchi pasportining asl nusxasi;

Ariza beruvchining ota-onasining pasport nusxasi.

Barcha savollar bo'yicha raqamlar:

71 246-80-51 / 52,

71 246 63 48

Elektron pochta: admission@polito.uz

Manzil: Kichik Kichik Halqa Yo'li ko'chasi 17, Olmazor tumani,
Toshkent 100095, O'zbekiston